
QUVASOYDA ELEKTR ENERGIYASI TA'MINOTI YAXSHILANMOQDA

“Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ tomonidan hududlarda past kuchlanishli elektr tarmoqlarini yangilash hamda modernizatsiya qilish ishlari davom etmoqda.

Avvalroq, Quvasoy shahrining “Yangiobod” hamda “A.Navoiy” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi elektr uzatish tarmoqlarini yangilash uchun zarur bo‘lgan navbatdagi temir-beton tayanchlari yetkazilgani haqida xabar bergan edik. (https://t.me/quvasoy_hokimligi/22824)

“Yangiobod” MFY dagi Yoshlarobod hamda Nurobod ko‘chalariga yangi transformatorlar ham olib kelindi.

Mas‘ullar bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, joriy yilda energiya samaradorligini oshirish, iste‘molchilarga sifatli elektr energiyasi yetkazib berish maqsadida Quvasoy shahrida 5,7 km yangi tarmoqlar tortilib, 8 ta yangi transformatorlar o‘rnatilmoqda.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-12-29 15:11:32